

SAID AHMAD HIKOYASIDA FRAZELOGIZMLARNING QO'LLANILISHI (“QOPLON”HIKOYASI MISOLIDA)

Avazova Azizaxon Xasan qizi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs talabasi

Erbutayeva Shalola Utkirovna

Ilmiy rahbar

Samarqand davlat pedagogika instituti tillar fakulteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20175465>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining taniqli yozuvchisi, davlat arbobi Said Ahmad Husanxo'jayevning ijodiga nazar tashlaymiz. Said Ahmad hajviy hikoyalar yaratish bo'yicha yuksak darajaga erishgan. Uning “Qoplon” hikoyasida qo'llanilgan frazeologik birliklar, ularning badiiy-estetik vazifasi, semantik tuzilishi, konnotativ ma'nolari, qahramon xarakterini ochishdagi roli hamda milliy tafakkurni aks ettirishdagi funksiyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar: Said Ahmad, frazeologizm, konnotatsiya, badiiy-estetik, semantika, xarakter, uslub, eskressevlik, obrazlilik, realizm, polisemantik, pragmalingsvistika, lingvokulturologiya.

Kirish.

Badiiy adabiyot tilning boyligi ko'p jihatdan unda qo'llanilgan frazeologik birliklarga bog'liq. Frazeologizmlar tilning obrazlilik darajasini oshiradi, muallif fikrini ta'sirchan yetkazishga xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida Said Ahmad asarlari xalqona ruh, jonli ifodalar va frazeologik boylik bilan ajralib turadi. “Qoplon” hikoyasi ham ana shunday jihatlari bilan diqqatga sazovordir. Mazkur hikoyada muallif xalq tiliga xos iboralarni tabiiy kontekstda qo'llab, voqelikni obrazli va ta'sirchan ifodalashga erishadi. Bu esa frazeologizmlarning faqat bezak emas, balki semantik yuk tashuvchi birlik ekanini ko'rsatadi.

Asosiy qism.

Iboralar - ma'nosi odatda bitta so'zga teng keladigan va ko'chma ma'noda qo'llaniladigan gap yoki so'z birikmalaridir. Masalan, qovog'idan qor yog'adi – xafa, qo'y og'zidan cho'p olmagan – yuvosh, hamirdan qil sug'urganday – oson. Iboralar, asosan, so'zlashuv va badiiy uslubda keng ishlatiladi, rasmiy va ilmiy uslublarda qo'llanilmaydi. Jo'rayeva Shohista o'z ilmiy maqolasida aytib o'tganidek: “Frazeologiya fraza va logos so'zlaridan olingan bo'lib, fraza – «ibora», logos – «bilim» ma'nosini bildiradi. Ko'rinadiki, frazeologiya iboralar haqidagi bilimdir”. Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, ma'noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalari.

“Qoplon” hikoyasida keltirilgan iboralar tahlili

Hikoyada “xushi yo'q” iborasi bosh qahramon – yangi direktor Tillayevning it boqishga bo'lgan munosabatini ifodalashda ishlatilgan. Ma'nosi: Tillayevning it boqishga umuman qiziqishi yo'qligi, it unga kerak emasligi yoki itga nisbatan ichki befarqligi nazarda tutilgan. Bu ibora orqali yozuvchi Tillayevning xushomadgo'y Qurbonboyning gaplariga darhol e'tiroz bildirmagan, ammo ich-ichidan bu ishni xohlamagan, zaifroq xarakterini ko'rsatib o'tgan.

“Qotirib tashlaymiz” iborasi Qurbonboy tilidan aytilgan bo‘lib, obrazining laganbardorlik, xushomadgo‘ylik va o‘z manfaati yo‘lida har qanday pastkashlikka tayyorlik xislatlarini ochib berish uchun ishlatilgan. Ma‘nosi: ishni a‘lo darajada, hech qanday nuqsonsiz, juda eplab bajarib tashlaymiz. Ushbu ibora orqali yozuvchi Qurbonboyning sun‘iy, ortiqcha urinishlari va rahbar oldida o‘zini yerga urib, yaltoqlanishini satira ostiga olgan. “Joni kirib qoladi” iborasi hikoyada itga nisbatan aytilgan. Bu ibora "jonlanmoq", "tetiklashmoq", "ahvoli yaxshilanib, hayotga qaytmoq" ma'nolarini.

“Parvo qilmay” iborasi. Hikoyadagi konteksti: Tillayev xotini gaplariga parvo qilmay, choy ichardi. Ma‘nosi: e‘tibor bermay.

“Qadam bosmay ketaman” iborasi Qurbonboy tilidan aytilan. Qurbonboy bu gapni Tillayev unga shifer (qurilish materiali) taklif qilganda aytadi. U go‘yoki moddiy yordamga muhtoj emasdek, do‘stlikni puldan ustun qo‘ygandek ko‘rinishga harakat qiladi, ya‘ni soxta kamtarlik qiladi. Aslida esa Qurbonboy Tillayevning ishonchiga kirib, garaj mudiri lavozimiga o‘tish va boyluk orttirishni ko‘zlagan. Bu so‘zlar bilan u o‘zining "halolligi"ni isbotlamoqchi bo‘ladi.

“Yotib qoldi” iborasi, xususan, asar qahramoni Tillayevning xastaligi bilan bog‘liq vaziyatni tasvirlashda qo‘llanilgan va o‘ziga xos ma‘no-mazmun kasb etadi.

“Ikki ko‘zi to‘rt bo‘lib” – juda qattiq kutmoq, intizor bo‘lmoq, ko‘zi yo‘lda qolmoq, sog‘inmoq yoki xavotir bilan biror narsani poylamoq ma‘nolarini anglatadi. Bu ibora qahramonning ruhiy kechinmalari va itga bo‘lgan mehri qanchalik chuqur ekanligini ta‘kidlash uchun xizmat qiladi.

“Qorasini ko‘rsatmay qo‘ydi”- ko‘zdan g‘oyib bo‘lmoq, yashirinib yurmoq ma‘nosidagi frazeologik birikmadir.

Said Ahmad dialoglarda frazeologizmlardan keng foydalanib, nutqni tabiiylashtiradi. Har bir qahramonning nutqi o‘ziga xos bo‘lib, undagi iboralar individual stilni shakllantiradi. Bu usul realizmni kuchaytiradi va o‘quvchini voqeaga ishontiradi. Hikoyada frazeologizmlar ekspressivlik, obrazlilik, baholash kabi bir qator funksiyalarni bajarib, hikoyani ko‘p qatlamli semantik tuzilishga keltiradi. Yozuvchi iboralarni o‘rinsiz qo‘llamaydi, balki ularni semantic zarurat asosida tanlaydi. Shuningdek, hikoyada ayrim frazeologizmlar orqali kinoya va yashirin ma‘no ifodalanadi. Bu esa matnni yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi. Masalan, hikoya yakunida

- Bizni it qalay?-dedi yangi director.

- Bu itni taniyman, -dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to‘nini tuflab artayotgan Qurbonboyga bir qarab, uyga kirib ketdi.

Ushbu gaplar orqali yuqorida aytib o‘tilgan ibora orqali kinoya ma‘nosi ifodalanishining guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Xulosa. Said Ahmadning “Qoplun” hikoyasida frazeologik birliklar badiiy matnning ko‘p qatlamli semantik-struktural tizimini shakllantiruvchi muhim lengvistik komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat nominativ birlik sifatida, balki konnotativ, ekspressiv va pragmatik yuk tashuvchi vosita sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, frazeologizmlar badiiy diskursda konseptual maydonni kengaytirib, o‘quvchining kognitiv faoliyatini faollashtiradi va interpretativ imkoniyatlarini boyitadi. Ular orqali muallif voqelikni bevosita tasvirlashdan

ko'ra, implitsit ma'no qatlamlarini yaratadi, natijada matn polisemantik va intertekstual xususiyat kasb etadi.

Demak, "Qoplon" hikoyasidagi frazeologik birliklar tilning nafaqat estetik, balki kognitiv va madaniy funksiyalarini ham namoyon etib, ularni zamonaviy tilshunoslik, xususan lingvokulturologiya va pragmalingvistika nuqtai nazaridan o'rganish zaruratini asoslaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Said Ahmad "Qoplon" hikoyasi
2. 6-sinf adabiyot darsligi.-Toshkent2017.-4b-7b
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati.-Toshkent-2022 8b-17b
4. H.Jamolxonov Hozirgi o'zbek adabiy tili-Toshkent-2005-216b-222b